

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SOTSILOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI

Abdusamatova Odinaxon Abdusalom qizi

Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 2-kurs 21.119-guruh talabasi

Annotatsiya: *Sotsiologiya fani yoshlarni jamiyatdagi ruhiy va o‘ziga xos holatga ega bo‘lgan yirik guruh sifatida o‘rganadi. Ushbu maqolada esa yoshlar sotsiologiyasi va uning nazariy asoslari, o‘ziga xos xususiyatlari hamda vazifalari haqida mulohazalar ifoda etilgan. Ularni o‘rganish barobarida O‘zbekistonda yoshlar uchun amalga oshirilayotgan islohotlarni bilib olishingiz mumkin. Qolaversa, YuNISEF, Yoshlar Ittifoqi va “Yuksalish” umummilliy harakatining “O‘zbekiston yoshlari: muammo va istiqbollari” nomli sotsiologik tadqiqot natijalari bilan tanishishingiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar sotsiologiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati”, K. Mangeym, tadqiqot, respondent, YuNISEF, Yoshlar Ittifoqi, “Yuksalish” umummilliy harakati, sotsializatsiya, integratsiyalashuv.*

Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda, sizlarning g‘ayrat va shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman.1
Sh. Mirziyoyev

Bugungi kunda dunyo aholisining kattagina qismini yoshlar tashkil etishi sir emas. Xususan, O‘zbekiston aholisining qariyb 60% dan ziyodini ham 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz aholisi sezilarli darajada ortib, 2022-yilning 8-dekabr holatiga ko‘ra doimiy aholi soni 36 millionga yetganligi qayd etilgan. Bu natijaga ko‘ra O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 41-o‘rinni egallamoqda. Yurtboshimizning keng ko‘lamli islohotlari doirasida yoshlar uchun olib borayotgan siyosatlari tahsinga savozdir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunga misol qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonini keltirishimiz mumkin. Unga ko‘ra, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi, 30-iyun yurtimizda “Yoshlar kuni” deb e‘lon qilindi hamda turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag‘batlantirib borish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta‘sis etildi.

O‘zbekiston o‘z istiqbolini yoshlarda ko‘rishi sotsiolog olimlar oldiga ham ulkan vazifalarni qo‘yadiki, bu sharaflı ishlar jamiyatimizdagi muhim ijtimoiy qatlamning

sotsial qiyofasi, tavsifini ifodalaydi. Shu jumladan, yurtimizda yoshlar sotsiologiyasining rivojlanishiga ham keng yo‘l ochiladi.

Aslida, yoshlar sotsiologiya qanday vazifalarni bajarishi kerak?

Biz uchun uning ahamiyati qay darajada?

Yoshlar sotsiologiyasi – amaliy sotsiologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, uning predmetini jamiyatdagi barcha yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar sotsiologiyasi XX asrning 20-yillarida Germaniyada, AQSHda va Fransiyada shakllandi. 1928-yilda K. Mangeymning “ Avlod muammosi” asari bosilib chiqdi. Mazkur asar yoshlarning sotsiologik muammolari ilmiy asosda o‘rganilgan dastlabki asarlardan biri edi. O‘tgan asrning 60-yillaridan yoshlar muammosini tahlil qilishga va ularni hal etishga qaratilgan asarlar chop etila boshlandi. Hozirgi davr yoshlar sotsiologiyasi doirasida yoshlar hayotini ilmiy-sotsiologik o‘rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Yoshlar muammosini o‘rganishda tarixiy yondashish lozimligi
2. Yoshlarning o‘ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o‘rganish
3. Yosh avlodni har jihatdan rivojlanib borishini tahlil qilish
4. Yoshlarga tabaqaviy jihatdan yondashish

Yoshlar sotsiologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat qiyin murakkabligida , balki har taraflama ko‘p qirraligidadir. Deyarli sotsiologiyaning barcha tarmoqlarida yoshlar masalalariga duch kelishimiz ham bejiz emas. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining tarkib topa borishi , ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy qarashlarida jiddiy o‘zgarishlar yasamoqda. Shuning uchun yoshlarning kelajak hayoti rejalarini , ularning qiziqishlarini aniqlash maqsadida empirik sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish va nazariy xulosalar chiqarish yoshlar sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yaqinda YuNISEF, “ Yoshlar Ittifoqi” va “ Yuksalish” umummilliy harakati “ O‘zbekiston yoshlari: muammo va istiqbollar “ deb nomlangan yirik tadqiqot natijalarini e‘lon qildi. Unda Respublikaning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan 4ming 500 nafarga yaqin respondent ishtirok etdi. Qolaversa, bevosita muloqot qilish uchun 24ta fokus guruhi shakllantirilgan. Tadqiqot 3 yil mobaynida zamonaviy metodologiyalar asosida olib borildi. Loyihaga yetakchi mahalliy va xorijiy ekspertlarning jalb etilgani ham alohida e‘tiborga molikdir

Sotsiologik so‘rov natijalari asosida tayyorlangan hisobotda aytilishicha , 15-20 yildan so‘ng O‘zbekiston noyob demografik dividenti qo‘lga kiritadi. 2048- yilga botib mamlakatda mehnatga layoqatli aholi soni tarixiy pik darajaga yetishi kutilmoqda. Tabiiyki, ularning salmoqli qismini yoshlar tashkil qiladi. Umuman olganda, hukumat inson kapitaliga , ya‘ni yoshlarning sifatli ta‘lim olishi-yu, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur.

Iqtisodchi olim, “ ERGO Analytics” kompaniyasi rahbari Rauf Saloxo‘jayev : “ Hozircha O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasidagi qarorlar yoshlarning real talab va ehtiyojlari emas, balki ko‘proq siyosiy qarashlar va umumiy taxminlar

asosida qabul qilinmoqda. Bu no‘to‘g‘ri. Pragmatik yondashuvsiz har qanday strategiya kun kelib pand berishi aniq” , - deydi. Chunki har qanday sohada shug‘illanish uchun yoshlar muayyan bilim va uquvga ega bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston yoshlariga bag‘ishlangan sotsiologik so‘rov 7ta asosiy mavzu yo‘nalishini o‘z ichiga qamrab olgan. Tadqiqot doirasida respondentlarning ta‘lim olish va kasb egallash imkoniyatlari , iqtisodiy mustaqilligi, jamiyat hayotiga integratsiyalashuvchi, yashash joyi va migratsiyasi, jamoatchilik fikri bilan hisoblashishi, raqamli texnologiyalar hamda internetdan foydalanish darajasi, kundalik tashvishlari va vaqtini tashkil etish masalalari o‘rganildi.

Muxtasar aytganda, yoshlarning barcha sohalardagi o‘rni va fikrlari izchil tahlil etildi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati kelajakda mamlakatimiz nufuzini oshiruvchi yoshlar uchun poydevordir. Yurt taqdiri unda yashovchi barkamol, sog‘lom fikrli, vatani uchun qayg‘uradigan va ertangi kun uchun intiladigan yoshlarning ko‘pligi bilan belgilanadi. Ishonamizki, O‘zbekistonda nafaqat yoshlar sotsiologiyasi, keyinchalik sotsiologiyaning barcha tarmoqlari ham rivojlanadi. Shubhasiz, yosh avlodning kelajak istiqbollari bugungi hayotdagi tartibiga qarab baholanadi. Jamiyatda ularning sotsializatsiyasi va ijtimoiy fikri hamisha muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz albatta, Yurtboshimiz va Xalqimiz bildirgan yuksak ishonchni oqlab, Vatanimiz uchun munosib farzand bo‘lamiz. Bunday ulug‘ baxt va sharaf barchamizga nasib etsin!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Yoshlari forumida so‘zlagan nuqti. 26-dekabr 2020-y
2. “ Sotsiologiya “ o‘quv qo‘llanma . M.B . Bekmuradov. Toshkent -2002. 111-113-b.
3. “ Sotsiologiya” fanidan ma‘ruzalar matni . Dotsent A.Altajonova, S. Qutlimuratov.
4. Yuz.uz
5. XS.uz
6. Uzdun.uz
7. Review.uz